

## VIII. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR

2024- yil yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasi 1 181,4 mln. AQSh dollarini va o'zgarish sur'ati 85,2 %ni, jumladan 405,0 mln. AQSh dollarini – eksport operatsiyalari yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 90,5 %ni, 776,4 mln. AQSh dollarini – import operatsiyalari yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 82,7 %ni tashkil etdi.

### 2024- yil yanvar-mart oylarida MDH va boshqa davlatlar kesimida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSh dollari)

	yanvar-mart		2023- yil yanvar-martga nisbatan % hisobida
	2023- yil	2024- yil	
<b>Tashqi savdo aylanmasi</b>	<b>1 386,5</b>	<b>1 181,4</b>	<b>85,2</b>

*shujumladan:*

MDH davlatlari	641,9	526,9	82,1
boshqa davlatlar	744,6	654,5	87,9
<b>Eksport</b>	<b>447,7</b>	<b>405,0</b>	<b>90,5</b>

*shujumladan:*

MDH davlatlari	178,2	183,2	102,8
boshqa davlatlar	269,5	221,8	82,3
<b>Import</b>	<b>938,8</b>	<b>776,4</b>	<b>82,7</b>


*shujumladan:*

MDH davlatlari	463,7	343,7	74,1
boshqa davlatlar	475,1	432,7	91,1


## Tashqi iqtisodiy faoliyat

Viloyat tashqi savdo aylanmasida  
MDH va boshqa davlatlarning ulushi, %da

2024- yil yanvar-mart



2023- yil yanvar-mart



**2024- yil yanvar-mart oylarida  
viloyat eksport-importi tarkibi**



	<i>Eksport va importning umumiy hajmidagi ulushi, % hisobida</i>		<i>O'tgan yilga nisbatan % hisobida</i>
	<i>2023- yil yanvar-mart</i>	<i>2024- yil yanvar-mart</i>	
<b>Eksport tarkibi</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>90,5</b>
Paxta tolasi	0,01	-	-
Oziq-ovqat mahsulotlari	11,4	10,6	96,5
Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	7,4	5,8	115,4
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	0,9	0,2	3,8 m.
Qora va rangli metallar	43,2	53,9	72,4
Mashina va uskunalar	3,7	2,2	152,6
Xizmatlar	0,2	0,2	126,3
Boshqalar	33,2	27,1	111,2
<b>Import tarkibi</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>82,7</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari	20,7	23,8	95,1
Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	10,4	10,7	85,0
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	9,7	10,4	88,3
Qora va rangli metallar	8,4	6,2	60,9
Mashina va uskunalar	29,1	33,6	95,5
Xizmatlar	0,1	0,2	102,3
Boshqalar	21,6	15,1	58,2

**Tashqi iqtisodiy faoliyat**



Eksport tarkibida tovarlar 99,8 % ulushiga ega bo‘lib, bular asosan qora va rangli metallar (43,2%), boshqa turdagi tovarlar (33,2 %), oziq-ovqat mahsulotlari (11,4 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (7,4 %), mashina va uskunalari (3,7 %) shuningdek, xizmatlar (0,2 %) guruhlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi**  
(mln. AQSh dollari)

2023- yil  
yanvar-mart




2024- yil  
yanvar-mart





Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob-uskunalar (33,6 %), oziq-ovqat mahsulotlari (23,9 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (10,7 %) hamda boshqa mahsulotlar (15,1 %) guruhlari hisobiga to'g'ri keldi.

**Tovar va xizmatlar importi tarkibi**  
(mln. AQSh dollari)

2023- yil  
yanvar-mart



2024- yil  
yanvar-mart



**2024- yil yanvar-mart oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida  
katta ulushga ega bo'lgan davlatlar bilan tovar aylanmasi**


	<i>Viloyat tovar aylanmasida ulushi, % hisobida</i>	<i>O'tgan yilga nisbatan % hisobida</i>
Xitoy	27,7	131,1
Rossiya Federatsiyasi	26,3	93,6
Qozog'iston	12,1	64,0
Turkiya	7,9	59,6
Italiya	3,2	2,7 m.
Belarus	2,6	96,3
Germaniya	2,3	72,7
Shvetsariya	2,2	13,4 m.
Tojikiston	1,4	83,0
Afg'oniston	1,4	161,2
Braziliya	1,3	21,7
Qirg'iz Respublikasi	1,0	75,4
Belgiya	0,9	126,8
Eron Respublikasi	0,8	115,6
Hindiston	0,7	118,6
Koreya Respublikasi	0,6	97,3
Niderlandiya	0,5	58,8
Turkmaniston	0,5	126,4

## Tashqi iqtisodiy faoliyat


Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘izton, Turkiya, Italiya, Belarus va Germaniya davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 82,1 %ini tashkil qiladi. Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Qozog‘izton, Turkiya, Italiya, Belarus va Germaniya davlatlariga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar, energiya manbalari va neft mahsulotlari hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

**2024- yil yanvar-mart oylarida MDH va boshqa xorij davlatlari bilan amalga oshirilgan tashqi savdo tarkibi %da**

**Eksport**



**Import**




**Tashqi iqtisodiy faoliyat**

Viloyatda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 44,6 %ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 17,9 %ga kamaydi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2024- yilning yanvar-mart oylarida 55,4 %ni tashkil qildi (2023- yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 53,7 %ga teng bo‘lgan).

**Toshkent viloyatining kichik biznes korxonalarining tashqi savdo aylanmasi**  
(mln. AQSh dollari)



So‘nggi yillarda mamlakatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo‘llab-quvvatlash, import o‘rni bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida viloyat tashqi savdo aylanmasida kichik biznes korxonalarining ulushi oshib bormoqda.



### Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2024- yil yanvar-mart oylarida jami 34,2 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 19,7 mln. AQSh dollariga eksport qilindi (o'zgarish sur'ati – 65,6 %). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2024- yilning yanvar-mart oylarida 31,0 ming tonnadan ko'proq sabzavotlar 14,7 mln. AQSh dollariga yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan qiymatda 25,1 %ga kamaygan.

Shuningdek, 1,9 ming tonna meva va rezavorlar 3,2 mln. AQSh dollarga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 56,2 %ni tashkil etdi.

**2024- yil yanvar-mart,  
mln. AQSh dollari**



Meva va  
rezavorlar

1,9 ming  
tonna  
3,2 mln.  
AQSH dollari



Uzum

1,1 ming  
tonna  
1,5 mln.  
AQSH dollari



Yeryon-  
g'oqlar

0,2 ming  
tonna  
0,4 mln.  
AQSH dollari



Sabzavotlar

31,0 ming tonna  
14,7 mln.  
AQSH dollari

Shuni aytib o'tish joizki, viloyatning eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida, meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalar eksport qilinmoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-mart oylarida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 17,9 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, umumiy eksportdagi ulushi 4,4 %ni tashkil etdi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat**